

Munozara janri namunalari haqida

(“Xusrav va Farhod munozarasi”)

SamDU II bosqich magistranti: Bo’ronov I
Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. S.Tohirov

Munoza – adabiy janr sifatida xalq ogʻzaki badiiy ijodiyotida shakllanib, avloddan-avlodga oʻtib, yozuv sharofati orqali yetib kelgan “Yoz bilan qish tortishuvi” asarida koʻramiz. Asarni yaratgan mehnatkash xalq badiiy konfliktga kirishuvchi kuchlarni xalqqa yetkazgan foyda va ziyonlariga qarab baholaydi, ularni kurashtiradi. Bu asar hozirgi adbiyotshunoslik ilmida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirila boshlanishi va sinfiy jamiyatning kurtak ota boshlashi davrlari badiiy ijod maxsuli sifatida baholanib kelinmoqda. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham Zardusht hamda Axura Mazda munozarasini koʻrishimiz mumkin.

Yozma adabiyotda munoza avvalo “Qutadgʻu bilig”, “Hibbat ul- haqoyiq” asarlari tarkibida kelgan boʻlsa, keyinchalik mustaqil adabiy asar shakliga koʻtarilgan. Buning misoli sifatida Yusuf Amiriy, Yaqiniy va Ahmadiylar munozalararini koʻrsatish mumkin.

Maʼlumki, Yusuf Amiriyning “Chogʻir va bang” munozarasida oʻsha davrda avj olib ketgan mayxoʻrlik, bang isteʼmol qilish illatlarini badiiy ijodga olib kirgan. Yaqiniy esa “Oʻq va Yoy” munozarasida oʻqni toʻgʻrilik, yoyni egrilik simvoli darajasiga koʻtaradi va qirgʻin urushlarni, jabr-zulmni qoralaydi. Ahmadiyning “Sozlar” munozarasida feodal jamiyatiga xos illatlar, amal talashish va fisq-u fasod hamda boʻxton tarqatishlar, noittifoqlik fosh qilinib tashlansa, Nishotiy munozaralarida oʻz davrining butun bir axloqiy masalalari kompleksi koʻtarilib chiqiladi va mehnatkash xalq manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilinadi.¹

Alisher Navoiy davrida va undan soʻngi davrlarda munozara janrining taraqqiyotiga sezilarli taʼsir oʻtkazganini kuzatish mumkin: Gulxaniyning “Zarbulmasal”idagi munozaralar shundan dalolat beradi.

Munozara butun oʻzbek yozma adabiyoti taraqqiyotining barcha davrlarida mustaqil adabiy janr sifatida taraqqiy etib keldi. Biz toʻxtalmoqchi boʻlgan Xusrav

¹ Муборак мактуботлар. “Ўқитувчи”. Т.: 1967. 154 –б.

va Farhod munozarasi badiiy asar tarkibida ilk bor Nizomiy dostononida o`z aksini topdi. Yaqin va O`rta sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan va qayta ishlangan “Xusrav va Shirin” (Navoiyda “Farhod va Shirin”) ma’lum tarixiy ildizga egadir. Xusrav 590-yilda taxtga chiqib 628-yilda o`g`li Sheruanning buyrug`i bilan o`ldirilgan mashhur sasoniy hukmdorlaridan Xurav Parvizdir. Xusrav Parvizning hukmronligi va uning shaxsiy sarguzashtlari haqida Vizantiya, Suriya va Eron tarixchilarining asarlarida ma’lumotlar uchraydi. Shu ma’lumotlarga ko`ra Xusravning Shirin degan go`zal va sevikli xotini bo`lar ekan, u eroniylardan emas va aslzoda tabaqadan chiqmagan ekan. Shunga ko`ra feodal ayonlar Xusravning Shiringa uylanganligidan norozi bo`lib, Shirinni sehrigar deb hisoblar ekan. Shunday ma’lumot X asr arab tarixchisi Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning “Tarix” kitobida bayon etiladi. Mana shu tarixiy voqealar zamirida turli xildagi rivoyatlar paydo bo`ladi. Tarixiy manbalar va rivoyatlar asosida birinchi marta Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”da shu mavzuga to`xtalgan.

Nizomiy Xusrav va Shirin haqidagi tarixiy manbalar va rivoyatlar bilan ham, Firdavsiy dostoni bilan ham yaxshi tanish edi. Nizomiy bularning barchasidan ijodiy foydalanadi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi. U o`z oldiga yangi va katta vazifalar qo`yadi. “Xusrav dostonning murakkab bir obrazidir. Bu obraz qiyofasida biz ikki Xusravni: Ishqda beqaror, ishratparast va zolim Xusravni, sadoqatli oshiq va adolatli podsho bo`lgan Xusravni ko`ramiz². Ikki Xusrav o`rtasida uzoq va qattiq kurash boradi, Uning dam salbiy tomonlari, dam ijobiy tomonlari ustun chiqadi. U ishqqa berilsa davlat ishlarini unutadi, davlat ishlariga berilsa, ishqqa beparvo bo`lib qoladi. U Shiringa oshiq bo`lgandan so`ng uning ishq ta’siri bilan xalqparvar hukmdorga aylanib, el-yurt uchun qayg`uradi. Uning osoyishtaligi uchun kurashadi. Bir vaqtlar Farhod kabi mo`jizakor ustani rashqi va istibdodi bilan munofiqona halok qilgan Xusrav, endi kishilarning hayoti va taqdiriga g`amxo`rlik bilan yondashadi, qo`l ostidagi amaldorlariga: “qon to`kmang, yomon ishlar qilmang, fuqora sizdan shikoyat qilmasin, el-yurt xarob bo`lmasin, elga sitam qiluvchilarga nisbatan shavqatsiz jazo beriladi”, - deb murojat

² Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. «Ўқитувчи». -1976. 243-б.

qiladi. Nizomiy yaratgan Xusrav obrazi ham Firdavsiy yaratgan Xusrav obrazidan tubdan farq qiladi.

Nizomiyda Farhod dostonning bosh qahramoni bo'lmasa ham, lekin voqealarning rivojida, asarda qo'yilgan masalalarni yoritish va hal etishda katta o'rin tutadi. Farhod mehnatkash va ijodkor, olim va donishmand, oshiq va vafodor kishi. Farhod samimiy oshiq. Shiringa bo'lgan sevgi Farhodning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, U sevgilisining xohishi bilan yangi mo'jizalar bunyod qilishga shaylanadi. Biroq Farhod murakkab ziddiyatlarga va dahshatli to'sqinliklarga duch keladi. U Shirinning Xusravni sevgani va bu sevgidan voz kecholmasligini biladi. Ammo Shirinni unutmaydi, Chunki u Xusravdek beqaror emas edi. Farhod xudbin va dahshatli Xusravga duch keladi. Xusravning balandparvoz so'zlari ham, uning do'q-po'pisalari ham Farhodni yengolmaydi. Xusrav bilan bo'lgan munozarada Farhod g'olib chiqadi.

Navoiy o'z dostonida Farhodni bosh obraz qilib oldi. Uning fikricha shohlik va oshiqlik bir kishida mujassam bo'lishi qiyin, Farhod esa ishq yo'lida shohlikdan voz kechdi. Ya'ni tasavvufdagi o'zlikdan kechmasdan haqiqiy ishqqa yetisha olmaslik aqidasiga rioya qildi. Xusrav va Farhod munozarasining deyarli barchasida Farhod g'olib chiqadi. Bu munozara asarning kulminatsiyasi. Nizomiy va Navoiy munozarasining ayrim baytlarini solishtiramiz.

Biguft: - On jo ba ba san'at dar chi ko'shand?

Biguft: - Anduh xarandu jon furushand.

Bigufto: – Jon furo'shi dar adab nest,

Biguft: – Az ishqibozon in ajabnest.

Qutb tarjimasi:

Ayitti: - Onda ne san'at qilurlar?

Ayitti: - Jon sotib qazg'u olurlar.

Ayitti: - Jonni sotmoqlik xato ul,

Ayitti: - Ishq yo'linda ham ravo ul.³

³ Маллаев Н. Низомий ижодий меъроси. «Ўқитувчи». 1960. 33-б.

Navoiyda esa:

Dedi: - Nedur sanga olamda pasha?

Dedi: - Ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedi: - Bu ishdan o`lmas kasbi ro`zi,

Dedi: - Kasb o`lsa basdur ishq so`zi.

Bu misralardan ko`rinib turibdiki, Farhod ishqni birinchi o`ringa qo`ygan. Xusrav esa oshiqlikdan ko`ra shohlikka ko`proq moyil obraz. Zero ki u Farhodning ishqini kamsitadi, bu ishq haqiqiy oshiqqa xos emas.

Keyingi baytlarda Farhodning Shiringa bo`lgan ishq qachon uyg`onganligi haqida so`z boradi. Bu Navoiy va uning salaf lari ijodida quyidagicha:

Dedi: - Qay chog`dun o`lding ishq aro mast?

Dedi: - Ruh ermas edi jong`a payvast. (Navoiy)

Bigufto: Ishqi Shirin bar tu chun ast?

Bigufto: Az joni shirinam fuzunast. (Nizomiy)

Bigufto: - Az ishq o` to kay xo`ri g`am?

Bigufto: - To ziyam, dar murdagi ham. (Dehlaviy)

Nizomiyning Farhodi so`ngi nafasiga qadar Shiringa oshiq edi, Xusrav Dehlaviy Farhodning ishq o`lgandan keyin ham davom etadi. Alisher Navoiyning Farhodi tug`ilgandanoq, ishq dardiga chalinganligi ayon edi:

Yuzinda ishq asrori yozilg`on,

Ichinda dard ta`vizi qozilg`on.

Xulosa qilib aytganda Xusrav, Farhod, Shirin obrazlari ishtirok etgan asarlarning deyarli barchasida Xusrav va Farhod munozarasi bir xil o`rinda keladi. Bu munozaralarda konflikt sezilib turadi. Haqiqiy ishq kuy lanadi. Har bir ijodkor bu munozarada o`z qarashlari nuqtai nazarida yondashgan, shuning uchun ham bu munozaralar turli xil xarakterdagi obrazlarning tortishuvi desak xato qilmaymiz. Navoiyda Farhod bosh obraz, Farhod timsolini o`z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o`rnak qilib ko`rsatadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Муборак мактуботлар. “Ўқитувчи”. Т.: 1967. 154 –б.
2. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. «Ўқитувчи». -1976. 243-б.
3. Маллаев Н. Низомий ижодий меъроси. «Ўқитувчи». 1960. 33-б.